

“MARDLIK” KONSEPTUAL BELGILARI IFODASINING SEMANTIK VA PRAGMATIK TAHLILI

Қорабоев Ж.

Annotatsiya:

Ushbu maqolda tilshunoslik sohasi o‘zining ichki tabiati va xususiyatiga ko‘ra, shubhasiz, ko‘plab sohalarning bir qismini ifoda etadi. Shunday sohalardan biri qiyosiy tilshunoslikdir. Tarjima va pragmatika o‘rtasidagi aloqa anglashilmas darajada namoyon bo‘lishi mumkin, ammo bu ikki sohani yaqindan o‘rganish ularning ahamiyatli tomonlarini namoyon qiladi.

Kalit so‘zlar: Pragmatika, tilshunoslik, xorijiy til, nutq, til vositalari, mardlik, konsept, leksema.

Аннотация:

В этой пословице область языкознания по своему внутреннему характеру и характеристикам, несомненно, представляет собой часть многих областей. Одной из таких областей является сравнительное языкознание. Связь между переводом и прагматикой может показаться тонкой, но более пристальное изучение этих двух областей раскрывает их важные аспекты.

Ключевые слова: Прагматика, языкознание, иностранный язык, речь, языковые средства, мужество, концепт, лексема.

Annotation:

In this proverb, the field of linguistics, according to its internal nature and characteristics, undoubtedly represents a part of many fields. One such field is comparative linguistics. The connection between translation and pragmatics may appear subtle, but a closer examination of the two fields reveals their important aspects.

Key words: Pragmatics, linguistics, foreign language, speech, language tools, courage, concept, lexeme.

“Mardlik” leksemasining semantik nuqtai-nazardan yadroviy (markaziy) ma’nosi erkak, botirlik, jasurlik sifatida tushuniladi. Z.M.Ma’rufovning 1981-

yil va A.Madvaliyevning 2020-yilda chop etilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”larida sifat so‘z turkumiga mansub “mardlik” so‘zining quyidagi asosiy ma’nolari sanab ko‘rsatiladi:

1. Mard ekanlik; *Sening elga sadoqatingni, Mardligingni bilar edim men* (Uyg‘un).
2. Mard kishilarga xos ish, xatti-harakat; *Menim, Qodir Rustamov mardlik bilan dong chiqargan jangchilarimizdan* (Uyg‘un, Hayot qo‘shig‘i).
3. Qo‘rqishni bilmaydigan; qo‘rqmas, botir, jasur; *Mard kishidan o‘lim ham qo‘rqadi* (I.Rahim, Chin muhabbat).
4. Er kishiga xos ijobiy fazilatlarga ega, aytganining ustidan chiqadigan, tanti, hotam; *Va‘daga vafo qilmoq – mardlarga xos fazilat* (G‘ayraty).
5. Umuman, biror ishni qila oladigan biror ish qo‘lidan keladigan kishi; *Bularga o‘z vaqtida issiq choy damlab berib turadigan mardning o‘zi yo‘q* (Oydin, Bechora).
6. Sahari mardon; (erta tong). *Sahari mardonidan ketgan Malishev ham qosh qorayganda qaytdi* (T.Rustamov, Mangu jasorat).
7. Mardon (erkak ismi).
8. Mardlarcha, mardlar singari; *Tabiiy qiyinchiliklar bilan mardona olishgan va o‘z maqsadiga yetgan azamatlarni har qancha tabriklasang – oz* (Gazetadan).
9. Erkakcha, erkaklarga tegishli (oyoq kiyim haqida); *Chin arafa kechasi butun do‘konlar tong mahaligacha ochiq bo‘lar, hayitga narsa olishga ulgura olmaganlar shu kechasi mardona, zaifona va bachkana kavush-mahsi.. sotib olar edi* (M.Muhammadjonov, Turmush urinishlari).
10. Mardonavor (mardlardek, mardlarcha, mardona); *Ona-Vatan istiqboling, saodating deb, Kurashda mardonavor qarilar, yoshlar* (G‘ayraty).

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, mardlik konseptining asosiy holatini ifodalovchi til omillari kognitiv jarayoni bosqichlarini chizma asosida ifodalashga harakat qilamiz.

Konseptning yadrosida (bazaviy qatlami) “mardlik” semasiga ega bo‘lgan leksemaning pragmatik xarakteri inson tabiatini, uning hissiyotlarini va umumiy psixik holatini tushunishda ham namoyon bo‘ladi. Bunda “mardlik” semantikasini ifodalovchi so‘zlar yoki so‘z birikmalari ko‘plab hissiyot va tuyg‘u elementlarini ifodalashi mumkin.

Qayd qilish lozimki, o‘zbek tilida mardlik uchun o‘ziga xos xususiyat bu oshkoralik belgisidir, bu mardlik ko‘pincha ma’lum harakatlarni amalga oshirish

ko‘rinishida isbot talab qiladi, u badiiy adabiyotdan olingan misollar bilan tasdiqlanadi.

Jismoniy yoki ruhiy olamini ochiq ko‘rsatish, shuningdek, o‘zining kuchsizligini shikoyatlar, ko‘z yoshlari ko‘rinishida ochiqdan-ochiq namoyon qilish mardlikka ziddir. Boshqa tarafdin, mardlik ba‘zan o‘zining ustunligini isbotlash uchun amalga oshiriladigan shafqatsiz harakatlar bilan munosabatda bo‘ladi.

Erkakning umumiy qiyofasi borasidagi til materiallari mardlik go‘zallikka emas, to‘g‘rirog‘i, yoqimlilik va xarizmga ega bo‘lishni nazarda tutadi. Erkak tashqi qiyofasining jalb qiluvchi jihati baland bo‘y, baquvvat qaddi-qomat, xipchalik, muskullarning pishiqligi, shuningdek, badanning oftobda qoraygan rangi va mardlikka qat‘iyat, viqorlilik, o‘ziga ishonch bag‘ishlaydigan gavdani mag‘rur tutishdir.

“Mardlik” konseptining uzoq periferiyalari erkakning jismoniy kuch-qudrati, shuningdek, uni ishlatish qobiliyati erkak obrazining ajralmas xususiyati yoki ham erkakka, ham ayolga xos bo‘lgan jasurlik, botirlik hisoblanadi.

Shuningdek, uni ishlatish qobiliyati erkak obrazining ajralmas xususiyati hisoblanadi.

Erkakka va ayolga xos bo‘lgan jasurlik, botirlik, shu bilan birga ayol jinsiga nisbatan ishlatilganda aniq ifodalangan ekspressiv bo‘yoq ishtirok etadi, ushbu fazilat esa ijobiy bahoga ega bo‘ladi:

“Mardlik” leksemalari nutqda turli stilistik vosita sifatida ham qo‘llanishi mumkin. Masalan, bu leksemadan metaforik va metonimik modellar yasash orqali nutqda qo‘llash mumkin.

Masalan, “Mardlik – er kishiga xos fazilat” metaforik modeli inson tasavvurini jasurlik va botirlik o‘lchamlariga ega bo‘lgan obyekt sifatida yuzaga chiqaradi. M.: *Va‘daga vafo qilmoq – bu mardlik.*

Metaforik modellar bilan bir qatorda “mardlik – inson (odam)” tipidagi metonimik modellar ham qo‘llaniladi. Masalan: *Yigitga yig‘i yarashmaydi - Yigitga mardlik yarashar.*

Gapning barcha turlari asosiy informatsiya tashuvchi yetakchi fe‘l semantikasi va fe‘l shakli asosida shakllanadi. Pragmatika esa turli nutq elementlarini – nutqda qo‘llaniladigan yordamchi vositalar – *menimcha, ehtimol, xayriyatki, albatta, axir, ham* kabi vositalarning mohiyatini chuqurroq tahlil qilish bilan shug‘ullanadi.

O'zining semantik ma'nosi bilan bir qatorda aytilgan gap (fikir) o'zining pragmatik ma'nosiga ega, ya'ni pragmatik vazifani ham bajaradi. Masalan, biror ishni qilishga qodir kishiga aytgan *"bularni bajarishga senda mardlik yetisharmikan"* degan gapi ortida vaziyatga ko'ra *"Bu ishlarni bajarishda aql bilan ish tut"* degan ma'no ham anglashiladi. Bu uning pragmatik ma'nosidir.

Gapning semantik ma'nosi uning funksional-pragmatik ma'nosiga to'la mos tushmaydigan holatlar ham uchray turadi. Masalan, *mard odam gapini yuzga aytadi gapi orqamdan gapirma!* ma'nosini taqozo qiladi.

Bunday tipdagi gaplar lisoniy, mantiqiy asosda, nutq vaziyati taqozosi bilan bog'liq holda hosil bo'ladi. Masalan: *mardligingni bilardim! – so'zingni ustidan chiqding!* Bu gapda lingvistik presuppozitsiya o'rin olyapti, ya'ni ikki iboraning sinonimik qatori hosil bo'lyapti.

- *Uning mardligi ikkinchi jahon urushida bilingan? – 1941-45 yillarda birga bo'lgan.* Bu gapda mantiqiy presuppozitsiya hodisasi o'rin olyapti, ya'ni yangilikni yil asosida aniqlayapti.

- *Mardlik ko'rsatasanmi?* Bu gapda *ishni oxirigacha bajar!* ma'nosi anglashilyapti, ya'ni situativ presuppozitsiya hodisasi kuzatilyapti.

Biror narsaning yetishmayotgani yoki kamligi haqidagi eslatma o'sha yetishmayotgan narsani to'ldirib qo'yish zarurati haqidagi istakni ifodalashi mumkin. Masalan: *Qiyinchiliklarni mardlarcha yengdi gapida nomardlik qilmadi* degan ma'no ifodalanadi.

Ushbu vaziyatda semantik jihatdan go'yo ortiqchadek tuyulgan fikrlarni yordamchi vositalar orqali ifodalangan pragmatik ma'noli gaplar deb atash mumkin. Masalan, *"Iye, mardlik qilmadingmi?"* degan gapda pragmatik jihatdan ro'parangizda turgan odam sizga xiyonatini anglatga, semantik jihatdan sizning hayronligingiz ifodalanyapti. Bunday gaplar nutqning turli janrlarida keng miqyosda qo'llaniladi. Ular turli-tuman stilistik ifoda vositalari orqali anglashiladi.

Tilda bunday gaplarning ko'rsatkichlari (indikatorlari) shakllangan. So'roq yuklamasi *"-mi"* ning qo'llanishi ana shu ko'rsatkich vazifasini bajarsa, *"iye"* so'zi so'zlovchining hayronligini anglatadi. Bunday gaplar ko'chma ma'noda qo'llanilib, o'ziga xos metafora vazifasini ham bajarishi mumkin. Bunday gaplarni konvensional xarakterdagi gaplar deb ataydilar. ***Bu mardlik***, - *dedi general nihoyat, - men bu odamni qatl etolmayman* gapida *"U jasorat ko'rsatdi"* degan ma'nodagi maqtov ifodalangan. Bunda muloyimlik ottenkasini *"mardlik qilmoq"* shaklidagi modallik ma'nosini anglatuvchi fe'l bajaradi.

Yuqorida zikr qilingan mulohazalarga tayangan holda ta'kidlash mumkinki, "mardlik"ka tahdid qilish, zarar keltirish, sindirish mumkin. Uni g'azablantirishadi, yaralashadi, yo'qotib qo'yishdan qo'rqishadi, biroq yo'qotishadi, undan mahrum bo'lishadi, o'g'irlashadi, qaytarib olishadi, u barbod bo'ladi, uni alishtirish, saqlash mumkin, u har doim mag'rurlik predmetlaridan biri sifatida lisoniy tadqiqot uchun obyekt sifatida xizmat qiladi. "Mardlik" semasiga ega bo'lgan leksemalar turli so'z turkumlariga mansub bo'lgan leksemalardan bo'lib, unga yondosh bo'lgan konnotativ ma'nolarni ham ifodalab o'zining pragmatik xususiyatlarini namoyon qiladi. U nutqda qo'llanganda uning pragmatik xarakteri (konnotativ ma'nosi) doim unga hamroh sifatida namoyon bo'ladi.

"Qo'rqmas" konseptiga *dovyurak, dadil, dadillashmoq, dadilona, yurakli, jur'atli, jur'at qilmoq, qahramonlik* kabi leksemalar kirib, u *dangal ish tutadigan, qo'rqib, hadiksirab o'tirmaydigan, dovyurak, shijoat bilan to'lib toshgan, jasurona, mardonavor, shaxdam qadam tashlaydigan, qo'rqmay, ishonch bilan, bemalol, shiddat bilan, tortinmay biror ishni bajaradigan, jismoniy, ma'naviy jihatdan baquvvat, tetik, bardam bo'lishi, moddiy jihatdan o'zini tutib olgan, boy-badavlat kabi ma'nolarni ifodalab keladi.*

1. Men **dovyurak** Rajabovni tog' burgutiga o'xshatdim (N. Safarov, Olovli).
2. Kana cho'lini yoritib **dadil** ilgariladi (Oybek, Qutlug' qon).
3. Aytib bersangiz, balki toparman – dedi Adolat **dadillashib** (S.Zunnunova, Gulxan).

Jur'at, jur'at qilmoq leksemalari insonlarning xavf-xatar, qiyinchiliklardan hayiqmay qilingan ish xususiyatlarini ifodalab keladi. *Jur'at* etmadi esa inkor ma'noda keladi.

1. Nima o'qiyapsiz? – deb so'radi nihoyat **jur'at qilib**. Yigit bosh ko'tardi (N.Safarov, Qahramonning tug'ilishi).
2. Qani bir bor hol so'rashga **jur'ati yetsa**, Momoxol momoning
3. Hozir u ro'paramga yetib keladi... Qiz to'xtadi. Men uning ko'zlariga qarashga **botinolmay**, boshimni ko'tardim, xolos

Berilgan misollardan shuni anglash mumkinki, "mardlik" konsepti gaplarda *jur'at, jur'ati yetsa* kabi konseptual belgilar bilan kelmoqda. Ammo ba'zi hollarda gap tarkibida "mardlik" leksemasi bo'lmasada, ushbu konsept tilda yashirin (implitsit) holda ifodalanishi mumkin.

Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, yuqoridagi lisoniy birliklar “mardlik” semantikasiga oid ma’nolarni ifoda etadi va ushbu leksemalar uchun “mardlik” konsepti mazkur lisoniy birliklarning semantik maydonini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, umuman olganda mardlik konseptining ingliz va o‘zbek tillaridagi ifoda vositalari nomenklaturasiga tub ot so‘zlar, tub sifat so‘zlar, tub fe‘l so‘zlar, qo‘shma so‘zlar, qo‘shma yasama so‘zlar, so‘z birikmalari, frazeologik birliklar, paremiyalar, sodda va qo‘shma tarkibli so‘zlar, mikro yoki makro matnlar kiradi. Yuqoridagi mardlik konseptining tilning turli sathlariga mansub birliklari mardlik arxisemasi asosida yagona semantik maydonni hosil qiladilar va maydon uzra turli joylarni egallaydilar. Maydon yadrosini tashkillovchi birliklar mardlik konseptini yorqin ifodalash xususiyatiga ega bo‘lib, ular kommunikativ-pragmatik jihatdan relevant va shu bois nutqning turli uslublarida ko‘p uchraydilar. Maydon chetini tashkillovchi birliklar yadro birliklariga nisbatan mazkur konsept ifodasi va semantikasiga nisbatan nafaol hisoblanadilar, ularning yorqinlik darajasi nisbatan past darajada bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika. -T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 286 b.
2. Якубов Ж.А., Концептнинг семантик қирралари. – “Хорижий тилларни ўқитишда замонавий ёндашувлар” мавзусидаги **халқаро** илмий – амалий анжуман материаллари. 2018 йил 11 апрель. 2 китоб. Фарғона – 2018. – Б. 227-228.;
3. Зыкова С.А. Специфика реализации концепта "мужественность" в языковой картине мира: на материале русского и испанского языков тема диссертации и автореферата по ВАК 10.02.20, кандидат филологических наук. Нижневартонск-2020.
4. Вендина Т. И. Семантика оценки и её манифестация средствами словообразования // Славяноведение. 1997. Вып. 4. С. 41-48.